



INGLIZ TILINI 2-TIL SIFATIDA O'RGANUVCHILAR ORASIDA GAPIRISH KO'NIKMASIDAGI MUAMMOLAR VA ULARGA YECHIMLAR

Jonuzoqova Dinora Sunnatali qizi

SamDCHTI filologiya yo'nalishi 1-bosqich 2403-guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tilini 2- til sifatida o'rganayotganlar orasida ravon gapirish qismida muammolar kuzatilmoqda, aynan shu muammolar, yo'l qo'yayotgan xatolar haqida gap ketadi. O'rganishni osonlashtirish va tez fursatda o'zlashtirish uchun sinalgan metodlar va aniq texnikalar beriladi. Shuningdek yangi til o'rganishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarga to'xtamasdan davom etish muhimligi keltirib o'tiladi. Ingliz tilidan ravon gapirish bo'yicha batafsil maslahatlar berilib tilning aynan gapirish qismi boshqa bo'limlar bilan uzviy bog'liqligi izohlanadi.

Abstract: This article discusses the difficulties faced by those learning English as a second language, particularly in the area of fluent speaking. It highlights the common mistakes learners make and presents proven methods and specific techniques to make learning easier and more efficient. The article also emphasizes the importance of perseverance in the face of challenges when learning a new language. Detailed advice is provided on how to speak English fluently, along with an explanation of how the speaking skill is closely connected to other areas of language learning.

Аннотация: В данной статье рассматриваются проблемы, с которыми сталкиваются изучающие английский язык как второй, особенно в части беглой речи. Обсуждаются именно эти трудности и ошибки, которые допускают учащиеся. Приводятся проверенные методы и конкретные техники, облегчающие обучение и способствующие быстрому усвоению языка. Также подчёркивается важность продолжать обучение, несмотря на возникающие трудности при изучении нового языка. Даются подробные советы по овладению беглой речью на английском языке, а также объясняется, как навык говорения тесно связан с другими аспектами изучения языка.

Kalit so'zlar: gapirish ko'nikmasi, lug'at boyligi, tinglab tushunish. o'qib tushunish, metod va texnikalar, taqlid qilish, shadowing, filmlar ko'rish.

Introduction

Bugungi kunda ingliz tilini o'rganuvchilar soni ortib bormoqda va tabiiyki bu jarayonlardan muvaffaqiyatli o'tish uchun bir necha aniq strategik texnikalar va kuchli ishtiyoq, sabr kerak. Xo'sh, ingliz tili o'rganuvchilarning 60%i gapirish ko'nikmasida qiyinchiliklarga duch kelar ekan va bu holatni bartaraf etish uchun nimalar qilish kerak, nega aynan ko'pchilik muloqot qilishda oqsab qolishmoqda. Zamona talabiga ko'ra hozirda qay bir yo'nalish bo'yicha faoliyat yuritishidan qat'i nazar har bir shaxsdan chet tilida muloqot qila olish talabi qo'yilmoqda. Va boshqa tarafdin qarasak inson o'z





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

fikrlarini yoki hissiyotlarini yozib tushuntirishdan gapirib haqiqiy muhitda emotsiyalar bilan boshqalarga yetkazish qulay, juda oson va sodda shakldadir. Shuning uchun hozirda ingliz tilida gapirish mahoratini rivojlantirishga ko'pchilik qattiq bel bog'laydilar.

Gapirish avvalo insonni boshqa tirik mavjudotlardan farqlovchi, o'zlashtirish oson bo'lmagan, ammo juda ham muhim mahoratlardan biridir. U murakkab til qobiliyati. Har bir voyaga yetgan shaxs o'z tilida bimalol gapirishi mumkin, lekin notanish tilda gapirish butun jarayon davomida juda katta qiyinchilik yuzaga keltiradi. Erkin muloqot qila olish insondan matonat, yillar davomida mehnat va chidamlilik talab qiladi. Bir shaxs ma'lum bir tilda erkin gapira olishi murakkab vaziyat singari ko'rinadi, ammo Ralph Waldo ta'kidlaganidek "Har bir inson biror joydan boshlaydi, hech kim mukammal bo'lib yaralmagan. Insonlar gapirishni o'rganishadi, chunki u bizga samarali muloqot qilish qobiliyatini beruvchi yagona yo'l!" Inson har kunlik, tinimsiz qilingan mehnati orqali albatta maqsadiga erisha oladi. Ya'ni "Har bir muvaffaqiyatli erkakning ortida doimo bir dono ayol bo'lganidek, mahoratli gapiruvchining ortida ham doim yaxshi gapirish qobiliyatini rivojlantirish mashqlar, mehnat bo'ladi", - deb aytgandi R. Waldo.

Bir necha talabalardan so'rovnoma olinganda shuni ko'rsatdiki, ya'ni o'quvchilar chet tilini o'rganish davomida ravon gapirishdan ko'p qiynalishar ekan. Quyida nima sababdan ko'pgina til o'rganuvchilarda aynan muloqot qilish mahoratining yuqori emasligiga bir nechta sabablar keltirilgan.

Ilm olish igna bilan quduq qazishdek mashaqqatli deb bejiz aytilmagan bir tilda mukammal, ravon gapira olish uchun ishtiyoq, har qanday holatda bo'lishidan qat'i nazar o'zini bag'ishlash kerak. Va yana bir narsa juda muhim, ya'ni yoshlarda dunyo-qarashning torligi -turli xil mavzular, meditsina, ta'lim, iqtisodiyot, fazo, atrof-muhit, axborot texnologiyalari kabi turli sohalarga oid bilimga ega emaslik 2-ingliz tili muhitining mavjud emasligi 3-yetarlicha lug'at boyligiga ega emaslik 4-yod olib gapirib berishga o'rganib qolish 5-gapirish davomida o'ziga bo'lgan ishonch yo'qligi 6-tartibsiz gapirish (berilgan fikrlarda izchillik yo'qligi) 7-omma oldida gapirishga noqulay bo'lish. Yuqorida sanab o'tilgan holatlar deyarli barcha til o'rganuvchilarida bo'lishi tabiiy. Mashaqqatsiz hunar bo'lmas, har narsaning iloji bo'lganidek tilni chuqur o'rganish va ravon muloqot qilish uchun bir necha metodlar bor. Avvalo metod tushunchasiga to'xtalib olaylik. Metod – bu biron bir maqsadga erishish uchun tuzilgan izchil, tizimli va tartibli harakatlar majmuasi bo'lib, u ko'zlangan maqsadga eltuvchi yo'lni qisqartirishga va manzilga yetib borishga ko'maklashadi. Aslida, metodlar ayrim bir sohada uzoq yillar faoliyat yuritgan olimlar tomonidan fanga kiritiladi va yangi o'rganuvchilar uchun darslik sifatini amaliyotga tatbiq qilish uchun beriladi. Endi buni "Gapirish" ko'nikmasi bilan bog'laydiigan bo'lsak, bu yangi til o'rganishni xohlovchilarga turli xil uslublardan foydalangan holda "Gapirish mahorati" ni yaxshilashdir. Bu orqali esa insonlarda til o'rganishdagi har xil qiyinchiliklarni oldini olish va avval sinalgan metodlar orqali o'quvchilarning til o'zlashtirishini ham tezlashtirish mumkin.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Xo'p endi, ingliz tilining bir qismi sanalgan "Gapirish" ko'nikmasini rivojlantiruvchi metodlarning turlariga to'xtalsak.

❖ **Lug'at boyligini oshirish:** tabiat bir biriga ajralmas tarzda bog'langanidek olam va undagi xoh tabiiy, xoh ijtimoiy hodisa bo'lsin bari uzviydir. Xususan, tildagi to'rtta mahorat ham shuningdek boshqa jihatlar ham bir-biriga zanjirdek ulangan. Lug'at yodlash har qanday tilni o'rganishdagi muhim omillardan biri va turlicha usullardan o'rganish mumkin. Ma'lum bir tartibdagi so'zlar (oila, kasb-hunar, so'zlashuvga oid so'zlar); radio, televizor, kitob, turli xil multimedia vositalar orqali eshitgan, ko'rgan ma'lumotlarimizni izlash orqali; kontekst ichidan ma'noni tushunish kabi usullarni o'z ichiga oladi.

❖ **Tinglab tushunish orqali gapirish mahoratini oshirish:** Umuman olganda to'rtta "skill" ham bir-biri bilan chambarchas bog'liq, masalan, tinglash orqali, ya'ni podkastlar, shoular eshitish va qahramonlar harakatidagi imo-ishoralarni takrorlash; "reading" orqali esa ravon gapirish uchun g'oya va mavzuga oid ilmiy terminlarni olamiz; "writing" bo'limi orqali gap tuzilishidagi strukturalarni yozish orqali xotiramizga butun holicha muxrlaymiz va qachonki gapirganimizda ulardan tayyor holda foydalanamiz.

❖ **"Push your comfort zone"**; Har kimni sevgan mashg'uloti, ya'ni hobbisi bo'ladi va o'shani o'qish bilan birga uyg'unlashtirish kerak, masalan, musiqa tinglash orqali sevimli qo'shig'ingizni xirgoya qilish bilan siz fonetik jihatdan talaffuz, intonatsiya, ohangdorlikka erishasiz, filmlar ko'rishni yoqtirsangiz inglizcha kinolarni "subtitles" bilan ko'rish sizga nafaqat zavq balki yangi so'zlar, tinglab tushunish qobiliyatini, haqiqiy muhitdagi so'zlashuvni beradi;

❖ **O'zini erkin tuta olish:** Bu har qanday holatga mos keladi. Batafsil bayon etsak, ba'zi o'quvchilar bilgan narsasini gapirishda qiynalishadi va bu holatga quyidagicha yechim qilsak ma'qulroq bo'la oladi. 1) oyna oldida gapirish – bu boshqalarning oldida so'zini yo'qotib qo'yishni oldini oladi. 2) Hamkorlikda o'rganish, ya'ni do'stlar bilan birgalikda o'rganish, ingliz tilida suhbatlar qurish qiziqarli mavzularda, turli fikrlar almashinuvi – bularning barchasi o'rganishni zavqli mashg'ulotga aylantiradi.

❖ **AI(Artificial Intelligence)-** XXI asr imkoniyatlaridan oqilona foydalana olgan kishi uchun alohida til o'rgatadigan kursni keragi yo'q. Chunki hozirda bu sun'iy intellekt hamma vazifalarni bajara oladi, misol sifatida aytadigan bo'lsak, ChatGPT (sun'iy intellekt turlaridan biri) bilan bimalol ingliz tilida gaplashish, yordam olish va maslahat so'rash mumkin.

Hozirgi kundagi talab darajasi va ta'sir etish kuchi yuqori bo'lgan metodlarchi? Bormi? Albatta, insoniyat bor ekan, izlanishlar va topilmalar yakuniga yetmaydi, aksincha, o'z doirasini kengaytirib boradi, shu sababli ravon gapirishni oson o'rganish va til bilish darajasini oshiruvchi metodlarni atroflicha o'rganib chiqsak.

1. "Shadowing" - bu texnika ko'p tillilik ustida ancha yillar ish olib borgan tilshunos olim Alexander Arguelles fanga olib kirgan. Arguelles bu metodni "eshitganini xuddi to'tidek (tushunsa, yoki tushunmasa ham) takrorlash" deb ta'riflaydi. Buni esa doimiy har kuni vaqt ajratgan holda shug'ullanish ajoyib natijalarga olib kelishini ham ta'kidlab





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

o'tgan. Shuningdek, bu uslubdagi tinglash keyinchalik yaxshi tushunish va so'zlarning talaffuzini va gaplardagi urg'u va intonatsiyani to'g'ri qo'yishga yordam berishi yillar davomida o'z isbotini topib kelmoqda.

2. "Total Physical Response (TPR)"- bu uslub 1960-yillarda Dr.James Asher tomonidan yaratilgan. Uning maqsadi bu metodda til o'rganuvchi eshitganini harakatlar bilan ifodalash orqali tilni yaxshiroq tushunishi edi. Aslida, bu metod hozirgi kunda kichik yoshdagi o'quvchilar uchun juda mos va til o'rganishni ularga qiziqroq variantini yaratishga yordam beradi.Va harakat bilan birgalikda so'zlarni aytib taqlid qilish ham oshiruvchi unsurlardan biri.

3. "Modern Multimedia Methods"- bu metod esa 1990-yillardan boshlab hayotimizda keng qo'llanilib keladi. Chunki bu metodning asosiy qurollari - kompyuter, internet, va audio-vizual texnologiyalardir. Biz ular orqali musiqa, podkastlar, filmlar va audiokitoblar kabi multimedia vositalaridan foydalangan holda tabiiy suhbat va real hayotiy nutqdan bahramand bo'lishimiz mumkin. Masalan, "Speak pall, Elsa speaking academy, Woodpecker, Ielts speaking assistant" kabi ilovalar o'zgacha tarzda o'rganishni ta'minlaydi. Bu narsa esa, albatta, bizda gapirishga bo'lgan qiziqishimizni, qolaversa, qobiliyatimizni ham oshiradi. Bunga qo'shimcha ravishda, dunyo qarashimizni ham kengaytirishi aniq.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha uslub va metodlar tushunish va tilni yaxshiroq bilishga yordam berish uchun yaratilgan va bu yerda keltirilgan. Agar insonda tilni o'rganish istagi kuchli bo'lsa, albatta, shu texnikalardan birini sinab ko'rishi va o'z qobiliyatini yanada oshirishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, inson osonlikcha bir narsaga erishmaydi xuddi shuningdek biror tilni asli kabi gapirish uchun bardavom mehnat, tajriba, amaliyot va kuchli xohish kerak bo'ladi. Yuqorida keltirilgan texnikalar shunchaki bir parcha edi o'rganuvchilarning o'zi xohlagan uslub va yo'nalishlarini yaratishi mumkin. Aslida yangi til o'rganish bu – yangi bir olamning kashf etilishidir va u olamda boshqalar bilan erkin tarzda fikr bo'lishish ajoyib bir zavq desa mubolag'a bo'lmaydi. Mana shu mushkul sayohatda doim o'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotmasdan dadil davom etish kerak. Zero natijasi kutgandan ham a'lo bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Analysis. Cambridge: Cambridge University Press, 1986.
2. Cook V. J. Second language learning and language teaching. Fourth edition. Hodder education.
3. Lacina J. Grammar instruction and technology. Childhood Education, 2005.
4. London, 2008. 2. Richards, J. C., Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching
5. Veronika Mark.Difficulties of speaking skill and diffirent approaches





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

6. Xudoyorova G, Sadullayeva G. Ingliz tilida gapirish ko'nikmasini oshirish usullari
7. Urinova S, Sadullayeva G. Til o'rganishdagi immersiv metodlar
8. Urinova S. Tinglab tushunish qobiliyatini oshirish usullari
9. Jennifer Herrity. 10 Ways To Improve Your Listening Skills. 18.09.2024.
10. John Field. Skills and Strategies: Towards a new methodology for listening. April 1998/ ELT Journal 52(2)
11. Jonathan Marks. Methodology: new ways to teach listening 12
- .Mukarramxodjayeva T.Y "Advantages and disadvantages of learning a foreign language at an early age" O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 20-son
13. "Explained guide on speaking skills development" All the bad speakers were bad speakers at first. Ralph Waldo Emerso.
14. Seven ways to develop English speaking skills. Nicholas Barki. November 22.2023 adelaide.edu.au

